

PUDRAT SHARTNOMASI

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Muborak tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan nizom asosida ish yurituvchi rahbari L.Erisov bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan Qarshi shahar "QILICHBEK PLYUS OG'ABEK" MChJ nomidan nizom asosida ish yurituvchi rahbari SH.Ravshanov ikki tashkilot o'rtasida ishlarni bajarishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

ijro hujjatlari - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalariga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda qurilish ob'ektlari jumladan yangidan qurish ishlarini bajarishga doir ishchi chizmalar, turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, qurilish-montaj ishlarini bajarilishini yuritish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha "Buyurtmachi" tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi, ob'jektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

II. SHARTNOMA MAVZUSI

2. Muborak tuman Mashal va Mashal 2 MFY da 4 dona artizon quduq qazish ishlarini bajarish. «Buyurtmachi» esa bu ishlarini qabul qilib olish smeta xujjatlarini tayyorlab, smeta xujjatlariga asosan va bajarilgan ish uchun xaq to'lash majburiyatlarini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan, to'la ta'mirlash ishlari loyiha-smeta xujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'img'irlari va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda amaldagi narxda 900 000 000 (To'qiz yuz million) so'mni tashkil etadi.

3.2. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar "Buyurtmachi" bilan "Pudratchi" o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi shartnomaning II-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

Pudratchining bajarilishi lozim bo'lgan ob'jektdagi ishlari uchun o'z texnikalarini o'z xisobidan qurilish materiallari, yoqilg'i moylash materiallari bilan ta'minlaydi.

Ob'jektning ijro xujjatlarini rasmiylashtirish va "Bosh pudratchi"ga topshirish, qurilish materiallarining muvofiqlik sertifikati, ishlatilgan qurilish materiallari va uskunalarining texnik pasportini taqdim etadi;

Shartnoma shartlariga asosan ob'jektning "Buyurtmachi"ga tasdiqlangan loyiha-smeta xujjatlariga muvofiq topshirish;

Barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda uning 1-ilovasida belgilangan, ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda, o'zining kuchlari va jalb qilingan kuchlar bilan qurilish qoidalarini va me'yorlariga, belgilangan standartlarga amal qilgan holda sifatli bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi;

Ob'yecktga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, boshqa xom-ashyolar va qurilish texnikasini o'z vaqtida hamda zarur hajmlarda yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni amalga oshiradi;

Qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarini bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer maydonini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarishni ta'minlaydi;

Qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlaydi, o'rnatilgan tartibda ob'yecktni sug'urtalashni ta'minlaydi;
Mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.2. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'yecktning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

5.1 Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

Ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ravishda qabul qilib olishni ta'minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

Buyurtmachi, Pudratchiga birinchi navbatda zaruriy materiallar uchun shartnoma qiymatidan 50 % miqdorida avans berishni amalga oshirish;

Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 (ikki) kun davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

Mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi. Pudratchi tomonidan bajarilgan haqiqiy qurilish-montaj ishlari uchun amaldagi qonun asosida F-2, F-3 larga binoan to'lovni amalga oshiradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

6.1. Pudratchi mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

6.2 Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish muddati «05» 12. 2022-yildan «31» 12. 2022-yilgacha

6.3. Mazkur shartnoma bo'yicha suv tamogi o'tkazish ishlarini bajarib berish, davom etirish vaqti loyixasmeta hujjatlari asosida aniqlanadi.

6.4. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar, ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

7.1. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirishi asos hisoblanadi. Ob'yecktda bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini boshlash uchun «Pudratchi»ga shartnoma summasining 30 % yoki 270 000 000 so'm miqdorda oldindan to'laydi. Qolgan 70 % yoki 630 000 000 so'mni ya'ni yakuniy to'lovni «Pudratchi» ishlari bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat F-2, F-3, yoki dalolatnoma taqdim qilingandan so'ng amalga oshiradi.

7.2. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha joriy yildagi ish qiymatining 30 % foizdan kam bo'lmagan miqdorda avans mablag' o'tkazadi. Avans mablag'larining miqdori Pudratchi tomonidan taqdim etiladigan va Buyurtmachi tomonidan ko'rib chiqiladigan ob'yecktda ishlarni boshlash uchun birinchi navbatda zarur bo'lgan qurilish materiallari hisobi asosida aniqlanadi.

7.3. Pudratchi ob'yeckt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'yecktga mulk xuquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'yecktni Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'yecktning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

7.4. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritishni talab qilish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH

- 8.1. Buyurtmachi qurilish maydoniga o'z vakilini - texnik kuzatuvchini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.
- 8.2. Texnik kuzatuvchi ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'liqsiz tanishish huquqiga egadir.
- 8.3. Pudratchi texnik kuzatuvchini ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik kuzatuvchi Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan ta'mirlash ob'yektda ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.
- 8.4. Pudratchi ob'yektda bajarigan ishlarining xajmlarini ijro xujjatlarini, qilingan sarf-xarajatlarni Buyurtmachi tomonidan mazkur ob'yekt uchun birlashtirilgan texnik kuzatuvchi bilan ob'yektning o'zida ko'rib chiqadi va to'liq ma'lumotni (belgilangan shakllarda ijro xujjatlari bilan) Buyurtmachiga topshiradi.
- 8.5. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasini va jadvaliga binoan ob'yektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.
- 8.6. Pudratchi ob'yektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.
- 8.7. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.
- 8.8. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.
- 8.9. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning yordamchi pudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchi va mablag'lari xisobidan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.
- 8.10. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi.
- Pudratchi nazorat daftarida Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda kursatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Bajarilgan va moliyalashtirish uchun qabul qilingan ish hajmlarida arifmetik xato va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlanganda, keyingi oylarda bajarilgan ish hajmlari tegishli o'zgartirishlar (korrektirovka) kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

IX. ISHLARNI QO'RIQLASH

- 9.1. Muborak tuman Mashal va Mashal 2 MFY da 4 dona artizon quduq qazish ishlarini bajarib berish tugallanguncha va pudrat ishlari tugallangan ob'yekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

X. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

- 10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.
- Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.
- 10.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

10.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. KAFOLATLAR

11.1 Pudaratchi: barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

loyiha-smeta hujjatlariga hamda qurilish me'yori, qoidalar va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni sifatli bajarilishini;

o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;

shartnomada belgilangan kafolat muddati mobaynida ob'yektdan foydalanish jarayonida nuqsonlar va chala qilingan ishlar aniqlanganda, o'z hisobidan bepul bartaraf etishni;

ob'yektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

11.2 Agar ob'yektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudaratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Buyurtmachi va Pudaratchining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

11.3 Pudaratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Davrixitektqurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

11.4 Pudaratchi tekshirish davrida aniqlangan kamchiliklari uchun to'liq javobgar hisoblanib, 100 % miqdorida o'z tomonidan bartaraf etadi.

XII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

12.1. Buyurtmachi: Shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudaratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

Ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudaratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda;

Pudaratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yori va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

12.2 Pudaratchi:

Ishlarning bajarilishi Pudaratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

12.3 Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudaratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish 15 kun muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudaratchiga to'laydi.

12.4 Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

12.5 Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

13.1 Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi:

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

To'la ta'mirlash ishlarini olib borayotgan Pudratchi tashkilot qonunchilikka asosan va shartnomaga muvofiq "Buyurtmachi" oldida qo'yidagi ishlar bo'yicha mulkiy javobgardir:

"Buyurtmachi" bilan tuzilgan shartnoma asosida to'la ta'mirlash ishlarini va boshqa ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan uskunalarini montaj qilish muddatlarini buzilishi;

To'la ta'mirlash ishlari jarayonida yoki oraliq qabul qilishda pudratchi, mualliflik nazorati va boshqa nazorat organlari tomonidan aniqlangan konstruksiya va ishlardagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etish orqali surish;

Shartnomada kuzda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarmagani yoki to'laqonli bajarmagani.

Pudratchi tashkilot tomonidan ishlarning bajarilishida pudrat shartnomasida chekinish yoki boshqa kamchiliklar mavjudligida Buyurtmachi, agar qonunchilik yoki shartnomada boshqa shartlar ko'zda tutilmagan taqdirda, pudratchi tashkilotdan o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:

Nuqsonlarni oqilona muddatlarda o'z hisobidan bartaraf etishni;

Agar Pudratchi tashkilot nuqsonlarni kelishilgan muddatlarda bartaraf etmasa, Buyurtmachi yoki yo'ldan foydalanuvchi tashkilot o'z kuchi bilan Pudratchi xisobidan nuqsonlarni bartaraf etish hamda nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etilmaganligidan keltirilgan zararni va bajarilgan ish qiymatini undirish xuquqiga ega.

13.2 Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

13.3 Pudratchi tomonidan ob'yektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha majburiyatlar buzilgan bo'lsa Pudratchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 5 foizidan oshmasligi lozim.

XIV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

14.1 Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar o'zaro hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hamda O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlari faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi 29.08.98 yildagi qonunlariga amal qilgan holda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

XV. KORRUPSIYAGA QARSHI KELISHUV

15.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalar, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni ular, ularning xodimlari, affillangan shaxslar, benefitsiari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilishda, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

15.2 Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

15.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruptsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruptsion xolatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

15.4 Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga etkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlarni qoplashni talab qilishiga xaqli emas.

XVI. ALOHIDA SHARTLAR

16.1. Mazkur shartnoma barcha o'zgarishtirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

16.2. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

16.3. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

16.4. Mazkur shartnomani tomonlar imzolagan kundan boshlab 2022 yil 31 dekabr kunigacha amal qiladi.

16.5. Mazkur shartnoma o'zbek tilida bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI:

«Buyurtmachi»

Muborak tuman xokimligi
«Obodonlashtirish» boshkarmasi
Manzil: Muborak tuman Sanoat xududi.
Sh.x/r: 401722860102347062902110002
STIR: 206999234, OKONX: 90211
Uzbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi
Markaziy bank Toshkent boshk. XKKM
Gazna x/v: 2340 2000 3001 0000 1010
MFO: 00 014 STIR: 201 122 919

«Pudratchi»

"QILICHBEK PLYUS OG'ABEK" MChJ
Manzili: Kasbi tumani Maymanov qishlog'i
Telefaks: (97) 588 04 04
Sh.x.r. 2020 8000 4004 7192 3001
STIR: 303 349 733 OKONX:
MFO: 00155
Bank: ATB Qishloq qurilish bank

Raxbar: _____ I.Erisov

Raxbar: _____ SH.Ravshanov



Xuquqshunos _____

	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	ANVAR SADINOV QURBONOVICH
	Imzolangan sana	07.12.2022 16:38
	Hujjat kodi	TJ4256550737
	Hulosa kodi	RM6725844146

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

RM6725844146

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **pudrat shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
OBODONLASHTIRISH VA KO'KALAMZORLASHTIRISH BOSHQARMASI
tomonidan 05.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish
maqsadga muvofiq.

Muborak tuman
yuridik
markaz rahbari:



E.E.ABDIRAXMONOV

07.12.2022

А.Ирдонов

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 195845 на приобретение Муборак туман Машъал ва Машъал 2 МФЙ худудида 4 дона артизан кудук казиш ишларини бажариш

Способ проведения электронный

Дата 01.12.2022

Время рассмотрения 01.12.2022 17:20

Закупочная комиссия Ободонлаштириш булими, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	ERISOV ILYOS SHERQULOVICH	Raxbar	XXX
Секретарь комиссии	AQIYEVA LAYLO CHORIYEVNA	Iqtisodchi-hisobchi	XXX
Член комиссии	NAZAROV ALIBOY TOIROVICH	Brigadir	XXX
Член комиссии	TO'RAYEV BEHZOD ABDIQADIROVICH	Xodimlar bo'yicha mutaxassis	XXX
Член комиссии	TOSHPULATOV UCHQUNBEK RUSTAM O'G'LI	Muhandis	XXX
Член комиссии	SADINOV ANVAR QURBONOVICH	Bosh hisobchi	XXX

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 01.12.2022 года № лота 195845.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 80

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту дренажной насосной станции (скважин)
Подробное описание	Муборак туман Машъал ва Машъал 2 МФЙ худудида 4 дона артизан кудук казиш ишларини бажариш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	913 315 878.00
Стартовая сумма	913 315 878.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Молиявий кўрсаткичлар тўғрисида маълумот (Охирги йилги баланс ва молиявий натижалар хисоботи

Тип: Текстовое значение

Описание: Хисоботлар нусхалари илова қилиниши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
QILICHBEK PLYUS OG'ABEK MCHJ	10	Хужжатлар электрон тартибда илова қилинади	8	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"DILXUSH FAROVON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	10	867400000	8	Экспертная		

Критерий №2 Танлаш иштирокчиси томонидан коррупция кўринишларига йўл қўймаслик бўйича кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Кафолат хати илова қилиниши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
QILICHBEK PLYUS OG'ABEK MЧЖ	10	Хужжатлар электрон тартибда илова қилинади	9	Экспертная		
"DILXUSH FAROVON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	10	867400000	9	Экспертная		

Критерий №3 Тик кудукларни таъмирлашда фойдаланиладиган машина ва механизмлар руйхати

Тип: Текстовое значение

Описание: транспорт воситаларини техник паспорти ёки ижара шартномаси илова қилиниши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
QILICHBEK PLYUS OG'ABEK MЧЖ	10	Хужжатлар электрон тартибда илова қилинади	8	Экспертная		
"DILXUSH FAROVON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	10	867400000	8	Экспертная		

Критерий №4 Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорлиқнинг мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумотнома (танлаш эълон қилинган кундан кейин олиниши шарт)

Тип: Текстовое значение

Описание: Маълумотнома нусхалари илова қилиниши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
QILICHBEK PLYUS OG'ABEK MЧЖ	10	Хужжатлар электрон тартибда илова	9	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		килинадди				
"DILXUSH FAROVON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	10	867400000	9	Экспертная		

Критерий №5 Инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги тўғрисида қафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Маълумотнома нусхаси илова килиниши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
QILICHBEK PLYUS OG'ABEK MCHJ	10	Хужжатлар электрон тартибда илова килинади	8	Экспертная		
"DILXUSH FAROVON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	10	867400000	10	Экспертная		

Критерий №6 Банкротлик, қайта ташкил этиш ёки тугатиш босқичида эмаслигини тасдиқловчи қафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Қафолат хати илова килиниши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
QILICHBEK PLYUS OG'ABEK MCHJ	10	Хужжатлар электрон тартибда илова килинади	10	Экспертная		
"DILXUSH FAROVON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	10	867400000	8	Экспертная		

Критерий №7 Кудукларни таъмирлаш даврида зарур малакали мутахассислари мавжудлиги тўғрисида маълумотнома (Ишчи ходимларни малакаси ёки мутахассислиги тўғрисидаги хужжат илова килинган ҳолда) (мутахассислар маълумотлари асосан тик кудукларни таъмирлаш соҳасида бўлиши шарт)

Тип: Текстовое значение

Описание: Маълумотнома нусхаси илова килиниши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
QILICHBEK PLYUS OG'ABEK MCHJ	10	Хужжатлар электрон тартибда илова қилинади	9	Экспертная		
"DILXUSH FAROVON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	10	867400000	8	Экспертная		

Критерий №8 2022- йилдаги тех қудуқларни таъмирлаш ишларини лойиҳалашдаги иш тажрибаси тўғрисида маълумот (шартнома ва ҳисоб варақ фактуралар нусхалари ҳам илова қилинади)

Тип: Текстовое значение

Описание: Шартнома ва ҳисоб варақ фактуралар нусхалари ҳам илова қилиниши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
QILICHBEK PLYUS OG'ABEK MCHJ	30	Хужжатлар электрон тартибда илова қилинади	26	Экспертная		
"DILXUSH FAROVON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	30	867400000	25	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (Балл)
QILICHBEK PLYUS OG'ABEK MCHJ	913 315 878.00	900 000 000.00 UZS	900 000 000.00	00.00	900 000 000.00	29.11.2022 13:25:34	19.27556
"DILXUSH FAROVON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	913 315 878.00	867 400 000.00 UZS	867 400 000.00	00.00	867 400 000.00	30.11.2022 16:43:22	20

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
QILICHBEK PLYUS OG'ABEK MCHJ	69.6	19.27556	88.87556
"DILXUSH FAROVON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	65	20	85

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 195845 от 01.12.2022 года на приобретение Муборак туман Машъал ва Машъал 2 МФЙ худудиди 4 дони артизан худук казиш ишлари бажариш определила победителем:

QILICHBEK PLYUS OG'ABEK MCHJ
303349733

и резервный исполнитель: "DILKUSH FAROVON" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT (303342030)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	ERISOV ILYOS SHERQULOVICH	Согласен	
Член комиссии	NAZAROV ALIBOY TOIROVICH	Согласен	
Член комиссии	TO'RAYEV BEHZOD ABDIQADIROVICH	Согласен	
Член комиссии	TOSHPULATOV UCHQUNBEK RUSTAM O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	SADINOV ANVAR QURBONOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП.

«ТАСДИКЛАЙМАН»

Муборак тумани Ободонлаштириш
бошкармаси бошлиги

 И.Эрисов

07.12.2022 йил

№ 10

Муборак шахри

Муборак туман Ободонлаштириш бошкармасида Машъал ва Машъал 2 МФЙ худудида 4 дона тик кудугини казиш ишлари учун 2022 йилда энг яхши танлов голиби деб топилган тик кудукни таъмирлаш асосида шартнома тузиб таъмирлаш ишларини бажаришни ташкил қилиш комиссиясининг

ТАНЛОВ КОНКУРС БАЁНИ:

Комиссия раиси:

И.Эрисов

АЪЗОЛАРИ:

А.Садинов
У.Тошпулатов
Б.Тураев
Л.Акиева
А.Назаров

хисобчи

мухандис

ходимлар булими

иктисодчи

бригада етакчиси

Кун тартибида куриладиган масала:

Муборак туман Ободонлаштириш бошкармасида Машъал ва Машъал 2 МФЙ худудида 4 дона тик кудугини казиш ишлари учун 2022 йилда энг яхши танлов голиби деб топилган тик кудукни казиш ишлари бажариш учун 2022 йил декабр ойи "QILICHBEK PLYUS OG'ABEK" МСҲ билан шартнома килиш ва шартномани тасдиклаш тугрисида.

Комиссия танлов конкурсга қатнашган вакилларнинг таклифларини кўриб чиқиб, Ободонлаштириш бошкармасида Машъал ва Машъал 2 МФЙ худудида 4 дона тик кудугини казиш ишлари учун 2022 йилда энг яхши танлов голиби деб топилган тик кудугини таъмирлаш бўйича 2 та хусусий корхона қатнашаётганлигини эълон қилди. Улар қуйидагича:

Танлов конкурс бўйича 2022 йил 23 ноябр кунда лот № 22110012195845

сонли протокол эълон қуйилгандан кейин 2 та ташкилот узини таклифлари билан

катнашди ва энг юкори балл "QILICHBEK PLYUS OG'ABEK" МСҲ олди ва 2 кун мухокамада қуйилди ҳамда бошқа эътирозлар булмагандан кейин "QILICHBEK PLYUS OG'ABEK" МСҲ билан шартнома тузилди.

ТАНЛОВ КОНКУРС КОМИССИЯ ҚАРОРҚИЛАДИ:

1 "QILICHBEK PLYUS OG'ABEK" МСҲ голиб деб топилсин.

2: "QILICHBEK PLYUS OG'ABEK" МСҲ томонидан тавсия этилган таъмирлаш ишларига шартнома тузиб олиб келишини хисобчи А.Садиновга топширилсин.

3. Ушбу баённома қарорини бажарилишини назорат қилиш бошлик И.Эрисовга юклатилсин.

Комиссия раиси:

И.Эрисов

АЪЗОЛАРИ:

А.Садинов
У.Тошпулатов
Б.Тураев
Л.Акиева
А.Назаров

хисобчи

мухандис

ходимлар булими

иктисодчи

бригада етакчиси





XALQ DEPUTATLARI MUBORAK TUMAN KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 24 - sentabr

VI-47-146-4-64-K/22

Muborak tuman hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish, g'olib deb topish va "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dagi mablag'larni mazkur tadbirlarga yo'naltirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash, jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish va ijrosini monitoring qilish bo'yicha ishchi komissiyaning 2021-yil 4-maydagi №128/24-06-sonli yig'ilish bayonini inobatga olib, xalq deputatlari Muborak tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qaroriga muvofiq Muborak tuman mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan shakllangan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'larini Nizom talablariga asosan ilovaga muvofiq jamoatchilik fikri asosida yo'naltirilsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo'limi (B.Sodiqov), G'aznachilik bo'linmasi (A.Nurmatov)lar "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan jamoatchilik fikri asosida sohalarga ajratilayotgan mablag'larni jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarga yo'naltirish bo'yicha tegishli soha rahbarlari bilan

birgalikda loyiha smetalarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda moliyalashtirishni taminlasin.

3.O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining "Ochiq byudjet" axborot portali orqali 2022-yilning 2-bosqichida "Tashabbusli byudjet" jarayonida fuqarolar tomonidan o'z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha qoldirilgan takliflarning 3-bosqich, ya'ni "ovoz berish" jarayoni yakunida aniqlangan "g'olib" takliflar ro'yhati hamda undagi shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish tasdiqlangan manzilli ro'yhatga asosan amalga oshirilsin hamda "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dagi qoldiq mablag'lar "g'olib" deb topilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun tayorlangan loyiha qiymatidan kelib chiqib mablag'lar yo'naltirilsin.

4.Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (S.Safarov) hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ilovada ko'rsatilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'lari hisobidan jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni hamda smeta loyiha qiymatidan ortib qolgan, iqtisod qilingan mablag'lar "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga qaytarilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

5.Muborak tuman hokimining Axborot xizmati (Y.Tuymurodov), tuman hokimining moliya bo'limi (B.Sodiqov) bilan birgalikda 3-bosqich, ya'ni "ovoz berish" jarayoni yakuni bo'yicha aniqlangan "g'olib" takliflar, shuningdek undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirish hamda amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Abdullayev hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari S.Safarovlar zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



A.O.Aripov

Xalq deputatlari Muborak tuman
Kengashining
2022 yil 24 sentabrdagi
VI-47-146-4-64-K/22-son qaroriga
1-ilova

Manzilli R O T X A T I

[illegible]